



DINIY QASAMLARNING NUTQIY AKTLARDA YUZAGA CHIQISHI

Akramova Madinabonu Avazbek qizi

ADU lingvistika yo`nalishi 2-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14744756>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Yanvar 2025 yil
Ma`qullandi: 24- Yanvar 2025 yil
Nashr qilindi: 27- Yanvar 2025 yil

KEY WORDS

pragmalingvistika, nutqiy akt, nutqiy akt turlari, diniy qasam.

ABSTRACT

Ushbu maqolada nutqiy aktlar va ularning tilshunoslikka kirib kelishi, turlari hamda diniy qasamlarda namoyon bo`luvchi nutqiy aktlarni Qur`oni Karimdagi qasam oyatlari misolida tahlil qilingan.

Nutqni tadqiq etishning istiqbolli yo`nalishlaridan biri bo`lgan pragmalingvistika nutq faoliyatini til birliklaridan foydalanish va so`zlovchilarning maqsadlari o`rtasidagi o`zaro bog`liqliklarni aniqlash nuqtai nazaridan o`rganadi. Anglashiladiki, odamlar orasidagi nutqiy munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiket ko`rinishlari lingvopragmatikaning o`rganish obyekti hisoblanadi. Uning XX asrning ikkinchi yarmidagi rivoji mana shu davrda shakllangan nutqiy akt nazariyasining lingvofalsafiy ta`limot sifatida shakllanishi bilan bog`liqdir. Amerikalik olim Ch.S.Pirsning tilga mantiqiy-falsafiy kategoriya sifatida qaray boshlashi tilshunoslikka nutqiy akt tushunchasining kirib kelishiga asos bo`ldi¹.

Shu tariqa, Ch.Pirsning nutqiy akt to`g`risidagi g`oyalarini XX asrning ikkinchi yarmida J.Ostin, J.Serl, Z.Vendler, P.Grays kabi olimlar davom ettirdilar. Pragmalingvistika, xususan, nutqiy aktlar nazariyasi buguni kun tilshunoslarining ham tadqiqot obyekti bo`lib kelmoqda.

Tilshunos M. Hakimov pragmalingvistika verbal va nonverbal vositalar orqali ifodalangan ma`no va mazmun komponentlarini tadqiq qiladigan soha ekanligini aytadi. Uning fikricha, bu soha nazariy masalalarga oid sof lisoniy tadqiqotlardan muallif munosabatining nutqiy aktlar orqali aks etishini jonli muloqot jarayonida o`rganishi bilan ajralib turadi. Odatda, har qanday funksional uslubga taalluqli matnda muallifning munosabati o`z ifodasini topadi. Bu munosabat so`zlovchi nutqiga xos buyruq, iltimos, va`da, ogohlantirish, minnatdorlik kabi mazmuniy strukturalar bilan to`ldiriladi. Bularning barchasi nutqiy akt nazariyasiga taalluqli masalalar ekanligi bilan xarakterlidir².

Nutqiy aktning dastlabki rivojlangan nazariyasi L. Viygenshteyn tomonidan ishlab chiqilgan. U nutq turli maqsadlarni ifodalashini va nutq o`z egasidan ajralmagan holda tahlil qilinishi kerakligi g`oyasini ilgari surib, uni "til o`yinlari" misolida tushuntiradi. Lingvistik falsafa maktabi vakillari J. Ostin va J. R. Searl ushbu ta`limot poydevorini yaratgan L.

Vitgenshteyn, Ch. S. Pirs va uning semiotika sohasidagi eng mashhur izdoshi Ch. Morris g'oyalarini rivojlantirib pragmatik funksiyalar nazariyasini ishlab chiqdilar. Ularning tadqiqotlari asosida tilni harakat sifatida tushunish yotadi. Nutq akti uzoq vaqt davomida pragmatik tahlil birligi hisoblanib, bu nazariyaning o'rganish obyekti nutq akti, ya'ni ma'lum bir muloqot sharoitida tinglovchiga murojaat qilgan so'zlovchining nutqi, nutqda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli nutq harakatidir³.

Nutqiy akt – ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan nutq harakati hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, nutqiy aktlar lingvistik xulq-atvor qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli kommunikativ harakat bo'lib, adresant, adresat hamda nutq vaziyati singari uchta komponentni o'z ichiga oladi. Biror insonning so'z vositasida muloqot qilishi, yoki kimningdir biror narsa qilish niyatida ekanligini nutq orqali ifoda qilishi nutqiy aktlarni keltirib chiqaradi.

Nutqiy aktga xos asosiy belgilardan biri uning yashirin tarzda ifodalanishidir. So'zlashuvchilar o'zaro muloqotga kirishar ekan, *“Hozir men senga tahdid qilaman”, “Hozir men seni qo'rqitaman”, “Men mazkur nutqim orqali sizni haqorat qilyapman, sizni hurmat qilyapman, sizni kalaka qilyapman”, “Sizga va'da beryapman”* kabi ifoda shakllaridan oshkora foydalanmaydilar. Nutqiy aktlarga xos bunday mazmuniy va lug'aviy strukturalar faqat muloqot chog'ida nutq yoki matn mazmunida anglashiladi. Ko'rinadiki, nutqiy aktlar gap yoki matnning mazmuniy strukturasida so'zlashuvchilarning o'zaro munosabatlariga asoslangan holda yuzaga chiqadi.⁴

Demak, nutqiy aktlar kommunikatsiya jarayoni maxsuli bo'lib, ularni kontekstual hodisa sifatida o'rganishimiz zarur. Albatta, kommunikantlar turli xil bo'lgani kabi ular o'rtasida kommunikatsiya jarayoni ham turlicha bo'ladi. Bu esa nutqiy aktlarning ham va'da, buyruq, xabar, ogohlantirish, minnatdorlik, iltimos, qo'rqitish, tahdid kabi turli xil mazmunda bo'lishiga sabab bo'ladi. M. Hakimov nutqiy aktlarning mazmunan xilma xil bo'lishi nutqiy muloqotga kirishuvchilarning sotsial maqomiga ham bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, diniy qasamlarda ham turli xil mazmundagi nutq aktlari namoyon bo'ladi deyishimiz mumkin. Chunki, diniy qasamlar ham turli ijtimoiy maqomga ega bo'lgan kommunikantlarning ma'lum bir nutq vaziyatidagi o'zaro muloqoti natijasida yuzaga keladi.

Diniy qasamlarni o'rganar ekanmiz, Qur'oni Karim biz uchun eng asosiy manbaa bo'lib xizmat qiladi. Chunki barcha qasamlarning tub negizi Alloh taoloning bandalariga ichgan qasamlariga borib taqaladi.

Alloh taolo Niso surasining 65-oyatida shunday deydi:

فَلَا وَرَبِّكَ لَا يُؤْمِنُونَ حَتَّىٰ يُحَكِّمُوكَ فِيمَا شَجَرَ بَيْنَهُمْ ثُمَّ لَا يَجِدُوا فِي أَنفُسِهِمْ حَرَجًا مِّمَّا قَضَيْتَ وَيُسَلِّمُوا تَسْلِيمًا

(Niso:65)

Yo'q, Robbingga qasamki, seni o'z oralarida chiqqan kelishmovchiliklarga hakam qilmagunlaricha, keyin, chiqargan hukmingga dillarida tanglik topmasdan, butunlay taslim bo'lmagunlaricha, zinhor mo'min bo'la olmaslar!⁵

Bizga ma'lumki, Alloh taolo Muhammad alayhissalomgacha juda ko'plab payg'ambarlarni yuborgan. Ko'pchilik odamlar payg'ambarlar odamlarni faqat odob-axloqqa, to'g'rilikka da'vat qiluvchi voizlar, nasihatgo'ylar deb o'ylaydi. Lekin payg'ambarlar ularning va'zlari tinglanishi, nasihatining anglanishi yoki hadislarining o'qilishi uchungina emas, balki amrlariga itoat qilinishi uchun yuboriladi. Payg'ambarlik inson hayotini o'z ichiga olgan mukammal hayot tarsi, voqelikdagi hayotni boshqaruvchi tuzumdur. Bu ishlarni amalga oshirish uchun esa hukmdorlik kerak. O'z navbatida, hukmdorlik itoatni talab etadi. Demak, Alloh taolo har bir payg'ambarini yuborar ekan, odamlarning u zotlarga itoat qilishlarini istagan. Yuqorida keltirilgan oyatda Alloh taolo payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga qasam bilan ta'kidlab, mo'minman degan odam har bir ishda Payg'ambar alayhissalomni hakam qilmaguncha, u zotning hukmiga chin dildan rozi bo'lib, ko'nglida hech qanday g'illig'ash qolmaguncha haqiqiy mo'min bo'la olmasligini ta'kidlagan. Ushbu oyatda ogohlantirish nutqiy akti namoyon bo'ladi. Ya'ni qasam ichishdan murod, odamlarni ogohlantirish. O'zini mo'min-musulmonman degan odam har bir ishini Islomning hukmi ila olib borishi va ushbu hukmga nafaqat sirtdan, balki ichidan ham to'la rozi bo'lishi kerak. Aks holda, zinhor mo'min bo'la olmaydilar.

Yuqoridagi oyatdagi qasam Alloh taolo O'z zoti oliysi bilan ichgan qasam edi. Shu suraning 118-oyatida esa shayton ichgan qasam keltiriladi:

لَعْنَةُ اللَّهِ وَقَالَ لَأَتَّخِذَنَّ مِنْ عِبَادِكَ نَصِيبًا مَفْرُوضًا (Niso:118)

Alloh uni la'natladi. (U esa) dedi: "Qasamki, bandalaringdan ma'lum nasibani olaman"⁶.

Alloh taolo shaytonni la'natlaydi va O'z rahmatidan quvadi. Shayton esa quvilayotgan vaqtida yuqoridagi qasamni ichadi. Bu qasamni ichish bilan o'zining maqsadini ayon qiladi. Ya'ni ushbu qasamda maqsad akti namoyon bo'ladi. Meni shularning sababidan la'natlayapsan, men bulardan ma'lum miqdorni o'z yo'limga chaqirib, kufr va isyonga chorlayman, deydi. Maqsad aktining ifodalanishini keyigi oyatda yana ham yaqqolroq ko'rishimiz mumkin.

"Ularni adashtiraman, xomxayollarga solaman, ularga amr qilsam, Allohning yaratganini o'zgartirarlar", dedi. Kimki Allohni qo'yib shaytonni do'st tutsa, batahqiq, ochiq-oydin ziyonga uchraydir.

Bizga ma'lumki, qasam ichishdan asosiy maqsad tinglovchini o'z gapiga ishontirish, ta'kidlash yoki va'da berish hisoblanadi. Diniy qasamlarda aksariyat hollarda va'da nutqiy akti mavjud bo'ladi:

وَإِذْ تَأَذَّنَ رَبُّكُمْ لَئِنْ شَكَرْتُمْ لَأَزِيدَنَّكُمْ وَلَئِنْ كَفَرْتُمْ إِنَّ عَذَابِي لَشَدِيدٌ (Ibrohim:7)

(Yana uning): "Va Robbingiz (sizga): "Qasamki, agar shukr qilsangiz, albatta, ziyoda qilurman. Agar kufr keltirsangiz, albatta, azobim shiddatlidir", deb bildirgan(ini eslang)⁷.

Ushbu oyatda Muso alayhissalom o'z qavmlariga Alloh taolo qasam ichib ta'kidlagan va'dasini eslatmoqda. Shukr qilish islom dinida eng muhim ishlardan biridir. Shukr ne'mat beruvchi Zotga maqtov so'zlarni aytish va ana shu ne'matni Allohning roziligi yo'lida sarf qilishdan iboratdir. Shukrga zid tushuncha bu kufrdir. Kufr keltirish ham katta gunohlardan biri hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, shukr ham, kufr ham islom dinida muhim

masalalardandir. Buni ularning qasam bilan ta'kidlab keltirilishidan ham bilib olishimiz mumkin. Bu qasamda esa va'da akti yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bizga ma'lumki, nutiy aktlar ma'lum bir nutq vaziyatida yuzaga keladi. Qur'on oyatlaridagi aksariyat qasamlar ham ma'lum bir vaziyat sababidan ichilgan qasamlardir. Qanday vaziyat sababli qasam ichilgani ulardagi nutq aktlarining turli xil bo'lishiga sabab bo'lgan. Mana shunday vaziyatlardan biri kofirlarning qiyomat kuni yana qayta tirilishga ishonmaganliklaridir. Ular: "Agar o'lsam, yana qayta tirik holda chiqarilamanmi?!" deydi. Ularning bu savoli inkor ma'nosidadir. Bunga javoban esa Alloh taolo:

فَوَرَبِّكَ لَنَحْشُرَنَّهُمْ وَالشَّيَاطِينَ ثُمَّ لَنُحْضِرَنَّهُمْ حَوْلَ جَهَنَّمَ جِثًا (Maryam:68)

Robbingga qasamki, ularni va shaytonlarni, albatta, mahsharga to'playmiz, so'ngra ularni ularni jahannam atrofiga tiz cho'kkan hollarida hozir qilamiz⁸.

Kofirlarning qayta tirilishlariga ishonmay, buni ochiq-oydin inkor qilishlariga javoban Alloh taolo O'z nomi bilan qasam ichib, bu muqarrar ish ekanligini ta'kidlamoqda. Albatta, Alloh aytgan ish bo'lmay qolmaydi, Ayniqsa, Alloh taolo O'z nomi bilan qasam ichib ta'kidlagan bo'lsa. Bu ishning bo'lishiga ishonmaslik mumkin emas. Ushbu oyatdan ko'rinib turibdiki, qasam orqali ishontirish akti namoyon bo'ladi. Ya'ni Alloh taolo bandalarini qiyomat kuni qayta tiriltirishi, va o'sha kunda kofirlarga muqarrar azob borligiga ishotirish uchun O'z nomi bilan qasam ichgan.

Yuqorida ko'rib o'tganlarimiz Alloh va bandalari o'rtasidagi munosabat orqali yuzaga kelgan qasamlar hamda ularda namoyon bo'lgan nutqiy aktlar turlari bo'ldi. Bilamizki, nutqiy aktlar nutqiy muloqotga kirishuvchilarning sotsial maqomiga bog'liq holda ham yuzaga chiqadi. Buni quyidagi oyat misolida ham ko'rishimiz mumkin:

فَالْقَوُّ أَجْبَلُهُمْ وَعَصِيَهُمْ وَقَالُوا بَعْزَةُ فِرْعَوْنَ إِنَّا لَنَحْنُ الْعَلِيُّونَ (Shuaro:44)

Bas, ular arqonlari va asolarini tashladilar va "Fir'avnning izzati bilan qasamki, albatta, biz g'oliblarmiz", dedilar⁹.

Ushbu oyatda qasam ichish orqal ishonch nutqiy akti yuzaga chiqqanini ko'rishimiz mumkin. Buni yaxshiroq tushunishimiz uchun esa mana shu qasam ichilishiga sabab bo'lgan voqealarni bilishimiz zarur.

Fir'avn Bani Isroilni qul qilib olgan edi. Muso alayhissalom uning oldiga borib Bani Isroilni ozod qilishinni so'raydi va olamlarning robbisi yagona Alloh ekanligini ta'kidlaydi. Bu gaplar esa o'zini dunyodagi yagona iloh deb biladigan Fir'avnning jahlini chiqaradi va agar undan boshqasini iloh qilib olsa uni zindonband qilishini aytadi. Shunda Muso alayhissalom o'zining haq payg'ambar ekanligiga isbot o'laroq Alloh unga ato etgan mo'jizalarni ko'rsatadi, ya'ni asosini yerga tashlaganda ajdarga aylanadi va qo'lini chiqaradi, qo'li esa ko'rgan odam havas qiladigan darajada oppoq edi. Bular Muso alayhissalomning haqiqiy payg'ambar ekanliklarni tasdiqlovchi mo'jizalar edi. Lekin Fir'avn buni sehrgarlik deydi, chunki o'sha davrlarda sehrgarlik avj olgan edi. Buni isbotlash uchun bir qancha o'ta bilimdon sehrgarlarni to'plab keltiradilar. Ular sehr qilishda bellashadilar. Sehrgarlar arqon va asolarini yerga tashlaydilar va o'zlariga ishonch bilan "albatta, biz g'oliblarmiz", deb Fir'avnning izzati bilan qasam ichadilar.

Ular Fir'avnga yaxshi ko'rinish uchun Muso alayhissalomni nazarga ilmay, o'zlariga katta ishonch bilan qasam ichadilar. Chunki ular Fir'avnni olamlar hukmdori deb bilishar edi. Shuning uchun qasam ichganda ham uning izzati bilan ichadilar.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelamizki, Qur'oni Karimda kelgam qasam oyatlarida nutqiy aktlarning ko'plab turlarini uchratishimiz mumkin. Nafaqat Qur'on oyatlarida, balki xalq orasida faol qo'llanadigan diniy qasamlarda ham turli nutq aktlari namoyon bo'ladi. Qasamlar orqali ifodalangan fikrlarda nutq aktlarining ma'nosi qanday bo'lishi esa qasam ichuvchilarning kim ekanligiga hamdanutq vaziyati qanday ekanligiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Hakimov. Nutqiy aktlar nazariyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma.2020.
2. U. Yaxyoyeva . Maqola. Tilshunoslikda nutqiy aktning o'rganilishi. 2023.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 1-juz.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 2-juz.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 3-juz.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 4-juz.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 5.-juz.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 6-juz.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot.14-15-juzlar.
10. Лингвистический энциклопедический словарь. – М. Сов. Энциклопедия, 1990.

INNOVATIVE
ACADEMY